

## BOSHLANG'ICH SINF DARSLARINI TASHKIL QILISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARING AHAMIYATI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10408682>

**Narzullayeva Parvina Akmalovna**

*Ilmiy raxbar: Rajabova Nodirabegim Komilovna*

### **Annotatsiya**

*Ushbu maqolada boshlang'ich ta'linda dars jarayonini tashkil etishda zamonaviy metodlardan foydalanish va uning ahamiyati borasida so'z boradi.*

### **Kalit so'zlar**

*Ta'lim, innovatsiya, boshlang'ich sinf, metod, pedaagog, tarbiya, innovatsion texnologiya.*

Ta'linda innovatsion texnologiyalardan foydalanish, boshlang'ich sinflarda foydalanish mumkin bo'lgan innovatsion texnologiyalarning didaktik tamoyillari, dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanish va boshlang'ich sinflarda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish katta ahamiyatga ega.

Jamiyatning ma`naviy salomatligini ta`minlashda ta`lim - tarbiya o`chog`i bo`lgan maktab muhim rol o`ynaydi. Dunyo imoratlari ichida eng ulug`i maktab bo`lsa, kasblarning ichida eng sharaflisi o`qituvchilik va murabbiylikdir. Har bir ustoz, har bir pedagog yosh avlodni ko`p asrlik milliy madaniyatimiz va tariximiz, shuningdek zamonaviy fan-texnika yutuqlari asosida tarbiyalash ishiga o`z hissasini qo`shishi, samarali maktab poydevorini qurishi, mustahkamlashi lozim. Bolaning ongi va tafakkuri endi shakllanib kelayotgan boshlang'ich sinflarda o`qituvchining mahorati, uning zamonaviy texnologiyalarni ta`lim jarayoniga mohirona tadbiq eta olishi, ta`limning yangi-yangi yo'l va usullarini izlashi, ilg`or pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi juda muhimdir. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf o`quvchilarini mustaqil fikrlashga o`rgatishda innovatsion ta`lim texnologiyasidan foydalanish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyatga joriy etishga tayyorlash bugungi boshlang'ich ta`lim oldiga qo'yilgan muhim talablardan biridir.

Zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida dars jarayonini tashkil etishda o`qituvchi dastlab:

- darsning maqsadi;
- maqsadga erishish yo'llari;

- o'quv materiallarini taqdim etish usullari;
- o'qitish metodlari;
- o'quv topshiriqlarining turlari;
- muhokamalar uchun savollar;
- munozara va bahslarni tashkil etish yo'llari;
- o'zaro aloqa usullari va kommunikatsiya singari omillarni aniqlab olishi lozim bo'ladi.

Axborot texnologiyalaridan boshlang'ich sinf o'quvchilarining barcha o'quv fanlarida samarali foydalanish mumkin. Darslarda o'quv va o'yin dasturlaridan foydalanish katta samara beradi. Ona tili va Rus tili darslarida savodxonlikni oshirish bo'yicha mashqlar yordam beradi, bunda bolalar kompyuterlarda turli xildagi amaliy topshiriqlarni bajaradilar. Boshlang'ich sinflar o'quvchilari uchun turli didaktik materiallar to'plamidan foydalanib, ko'rgazmali mashq, nazorat mashqlari va test sinovlari modullari kiritilgan aralash kompyuter dasturlarini tayyorlash mumkin. Unga fanga oid qoidalarni joriy o'rganish va umumlashtirilgan takrorlash uchun uchta variantlarda berilgan grammatika, orfografik mavzular bo'yicha boy va turlituman materiallardan foydalanish yaxshi samara beradi. Ona tili darslarida insho yozishda taqdimotlardan foydalanish qulay. U orqali mavzuning savol va rejalarini tuzish, qiyin so'zlarni topish osonlashadi. Insho rasm asosida yozilayotgan bo'lsa, mavzuga doir rasmni ekranda namoyish etish imkonini beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan o'qish darslari jarayonida erkin va mustaqil qobiliyati shakllanadi. Mustaqil fikrlash qobiliyatining shakllanishi natijasida, o'quvchilar atrof olamdag'i, jamiyatdag'i qonunlarni, shuningdek, asardagi ijobiy va salbiy qahramonlar orqali insoniy fazilatlarni anglash, bilimlarni chuqur o'rganish, keng fikrlash, tegishli qarorlar qabul qilish ko'nikmalari shakllanadi. Pedagogik texnologiyalardan foydalanishda ta'limning mazmunini belgilash, ta'lim-tarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, o'quvchilarning bilimlarni keng egallashi va ma'naviy fazilatlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan topshiriqlar tizimini ishlab chiqish, ta'limning natijasi va o'zlashtirish darajasini aniqlash, ularni obektiv baholash uchun test vazifalarini tayyorlash kabilar tashkil qiladi.

Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar va ta'limiy o'yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. O'qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan

sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg'or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta'lif-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi. O'qish darslarni tashkil e'tishda va o'quvchilarning darsda faolligi, qiziqishlarini oshirishda quyidagilarni hisobga olishni tavsiya qilaman:

- Yangi g'oyalalar qabul qiling, bir xillikdan qoching, bu darsni boshlashningizdan tortib, o'tilgan mavzuni mustahkamlashda, yangi mavzuni bayon qilishingizda o'z aksini topsin. O'quvchi uchun yangilik bo'lsin. Bu o'quvchida a'lo kayfiyatni va darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Sinf xonasining o'quvchiga yoqadigan bo'lishi kerak. Sinf xonasining o'quvchiga yoqadigan qilib bezatilishi uning o'zini erkin va qulay his qilishiga yordam beradi.

- Darsni audio va videolardan foydalanib o'tish kerak.

- Darsni hayotga bog'lab o'tish kerak. O'quvchi faqat sinfda o'tirishi kerak emas, vaqt bilan tashqariga olib chiqib dars o'tish ham yaxshi samara beradi. O'quvchi o'zi hayotida ana shu o'rganganlarini qo'llaydi.

- Darslarda sahna ko'rinishlardan foydalanish kerak. O'quvchi keng doirada o'zini tutishni o'rganadi.

- Mavzuni o'rgatishda rasmlardan foydalaning. Masalan, bitta hikoya uchun 5 ta rasm. O'quvchi hikoyaning mazmuniga qarab rasmlarni o'rniqa qo'yadi.

- Darslarda topishmoq o'yinlardan foydalaning. O'rganish jarayoni xursandchilik bilan o'tadi. O'quvchini qiyinchiliklarni yengishga tayyorlaydi.

- Ijodkorligini oshirish uchun o'quvchi mavzuga mos ko'rgazmalarni ko'rib tursin, mavzudagi voqe-a-hodisani tasavvur qila olsin. Bu o'quvchining mavzuga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

- O'quvchining diqqatini jalb qilishda ko'rgazmalardan keng foydalanish kerak. Masalan, prezidentasiya qilib ko'rsatish. Darsda o'quvchida oxirgi taassurotni qoldirish bu juda muhim.

- Darsni ertak sifatida olib borish, qiziqarli hikoyaga bog'lab o'tish, o'quvchining yoqtirgan filmiga bog'lab o'tish ham o'quvchining darsga qiziqishini oshiradi.

- Darsda o'quvchilarni turli xil g'oyalarga undang. O'quvchi fikrini erkin aytsin. Bunda guruuhlar bilan ishslash metodidan foydalanish yaxshi natija beradi.

Xulosa qilib aytganga, komil insonni voyaga yetkazishda boshlang'ich ta'lif, shubhasiz, poydevor vazifasini o'taydi. Darslar jarayonida bolani qalban yuksak, ma'nnaviy boy qilib tarbiyalashda ajdodlarimiz yaratgan betakror asar durdonalaridan foydalangan holda bilim berish hamda odob-axloq qoidalariga o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun birinchi navbatda, o'quvchini o'qish, bilim olishga ishtiyoqini o'stirish, ularning ma'nnaviy dunyosini boyitish

zarur. Shundagina ertangi kunning ishonchli egasi bo'lgan farzandlarni munosib tarbiyalagan bo'lamic.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Azizzxo'jayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.T.: 2006
2. Avliyoqulov N.X. Musayeva N. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent., 2008
3. 3Tolipov O,,, Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiylasoslari. -T.:Fan 2006
4. Babayeva D. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. TDPU. 2018.
5. J.Yo'ldoshev, S.Hasanov. Pedagogik texnologiyalar. (o'quv qo'llanma) T.:Iqtisod-moliya» 2009.